

INGLIZ VA O'ZBEK KIYIM DIZAYNIGA OID TERMINLARNING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xurshida Tojiyeva

O'zMU magistratura talabasi Toshkent, O'zbekiston

khurshida0115@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tilida kiyim dizayni sohasiga oid sodda va qo'shma terminlarning morfologik xususiyatlari, ushbu terminlarning yasalishida ishtirok etadigan qo'shimchalar va so'z turkumlari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *termin, terminologiya, morfologik struktura, kiyim, dizayn, affiks, prefiks, suffiks, so'z turkumlari.*

MORPHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ENGLISH AND UZBEK CLOTHING DESIGN TERMS

Xurshida Tojiyeva

Master's student of NUU Tashkent, Uzbekistan

khurshida0115@gmail.com

Annotation: This article analyzes the morphological characteristics of simple and compound terms related to the field of clothing design in English and Uzbek, the affixes and word groups involved in the formation of these terms.

Key words: term, terminology, morphological structure, clothing, design, affix, prefix, suffix, word groups.

Morfologik strukturasiga ko'ra ingliz va o'zbek kiyim terminologiyasini sodda va qo'shma terminlarga ajratamiz. Sodda terminlar ham o'z o'mida tub va yasama terminlarga bo'linadi. Sodda tub terminlar A (asos) dan iborat bo'ladi: *belt, shirt, tie, hat, boot, yeng, yoqa, libos, adres* va b. Sodda yasama terminlar esa qo'shimcha qo'shish yordamida yasaladi: A (asos) + Q (qo'shimcha), masalan: *designer, baggy, fashionable, leggings, tikuvchi, naqshdar*.

E.G.Petrosyantsning yozishicha qo'shimcha qo'shish bilan yasadigani yasama terminlar ingliz tiliga asosan roman va yunon tillaridan kelgan.⁶⁷ Ingliz tilidagi kiyim dizayni terminologiyasini o'rGANAR ekanmiz, quyidagi termin yasovchi qo'shimchalarni aniqladik:

Suffikslar yordamida:

- *er* - *jogger* - *jogger shimi, hanger* - *ilgich, sweater* - *sviter, blazer* - *ochiq rangli sport kurtkasi*.

- *ing* - *tailoring* - *tikuvchilik, knitting* - *to'quvchilik, fitting* - *kiyib ko'rish, stitching* - *chok*.

- *y* - *trendy* - *zamonaviy, stretchy* - *cho'ziluvchan, flowery* - *gulli*.

- *less* - *seamless* - *choksiz, backless* - *orqasiz, strapless* - *tasmasiz, sleeveless* - *yengsiz*.

⁶⁷ Petrosyants E.G. Linguistic terminology: structure, semantics, derivation: on English material. Pyatigorsk, 2004 -

-al- traditional- *an'anaviy*, classical- *klassik*, natural - *tabiiy*, floral - *gul bilan bezatilgan*

-ish- girlish - *qizlarga xos*, stylish- *modadagi*, *zamonaviy*

-ie - hoodie - *qaytarma qalpoqli ust kiyim*, hippie - *hippi*

-able- fashionable - *zamonaviy*, wearable - *kiyishga mo'jallangan*

Prefikslar yordamida:

over- oversize - *katta o'lchamli*, overcoat- *palto*

under- underpants - *ichki kiyim*, undershirt - *mayka*

Ham oldi ham orqa qo'shimchalarga yordamida yasalgan terminlar:

Assymetrical- *assimetrik (bichim)*

Unnatural- *notabiiy (mato)*

O'zbek tilidagi kiyim dizayni terminlarini yasovchi affikslar o'rganilganda, quyidagi faol suffikslar aniqlandi:

-chi - *bichuvchi*, *tikuvchi*, *bezakchi*.

-ish, -sh - *to'qish*, *o'lchash*.

-li - *tugmali*, *gulli*, *yoqali*, *rangli*.

-siz - *yengsiz*, *choksiz*, *yoqasiz*.

-lik - *astarlik*, *kiyimlik*.

Bulardan **-chi** kiyim dizayni bilan shug'ullanuvchi shaxs otlarini yasasa, **-ish** qo'shimchasi esa jarayon nomlarini bildiradi, **-li**, **-siz** qo'shimchalari esa kiyim dizayniga xos biror belgining mavjud yoki mavjud emasligini ifodalaydi.

O'zbek tili kiyim dizayni terminologiyasida fors-tojik tilidan kirgan prefikslar ham ishlataladi:

Be- *beo'lchov*, *beandaza*. **Ser-** *sernaqsh*, *serburnma*.

Be- prefiksi **-siz** suffiksi bilan sinonim qo'llaniladi, **ser-** prefeksi, **-li** suffiksi bilan sinonimdir.

Kiyim terminologiyasida qo'shma so'z tarkibli terminlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular A+A modeli asosida, ya'ni ikkita asosning qo'shilishidan tashkil topadi: **footwear** - *oyoq kiyimi*. Ikkita yoki undan ortiq asosning qo'shilishidan qo'shma termin hosil bo'ladi. Qo'shma so'zlarga aylanish jarayonida ular tire bilan yozilsa, keyinchalik qo'shib yozish orqali mustahkamlanadi.⁶⁸ Ingliz tilida qo'shma terminlar **ot+ot**, **fe'l+ot**, **sifat+ot**, **ot+sifat** kabi morfologik strukturaga ega:

Ot+Ot = Ot: raincoat - *yomg'ir paltosi*;

sweatshirt - *sviter*;

handbag - *sumka*;

neckline- *bo'yin o'yimi*,

nightdress- *tungi ko'ylak*,

waistcoat - *nimcha*.

Fe'l + Ot = Ot: swimsuit - *cho'milish kiyimi*,

knitwear - *trikotaj kiyim*.

Sifat + Ot = Ot: activewear - *dam olish yoki sport kiyimi*,

womenswear - *ayollar kiyimi*.

⁶⁸ Гринев С.В. Введение в терминоведение. — М.: Московский лицей, 1993.— с 155.

Zamonaviy ingliz kiyim terminologiyasining rivojlanishida simvol-harflardan iborat bo'lgan terminlar ham ko'payib bormoqda.

Simvol+ Ot = Ot: V-neck – *V shaklli bo'yin o'yimi;*

A-line – *tepa qismi tor, pasti keng (ko'ylak yoki yubka);*

Y-fronts – *erkaklar ichki kiyimi turi.*

Terminlarning asosini otlar tashkil qilsada, kiyim dizaynidagi sifatlarning o'rni ham salmoqlidir. Bu esa kiyim dizayni bu ijodiy soha ekanligi va mato, rang, uslub va bezak kabi turli xil elementlarga ega ekanligi bilan asoslanadi.

Sifat+sifat= Sifat: high heeled – *baland poshnali;* double-breasted- *ikki yoqlama tugmal;* short sleeved- *kalta yengli;*

Sifat+Ot= Sifat: loose-fitting – *keng; high-waist – yuqori bell;*

Ot+Sifat= Sifat: handmade- *qo'l mehnati,*

Ot+Fe'l= Sifat: waterproof – *suv o'tkazmaydigan,*

Ot+Ot= Sifat: batwing- *ko'rshapalak shaklli (yeng); turtleneck- yopiq bo'yinli*

O'zbek tilida qo'shma terminlar asosan *ot+ot* morfologik strukturasiga ega. Va natijada ot va sifat so'z turkumidagi terminni hosil qiladi. Masalan:

Ot+Ot= Ot: *qo'lqop, bo'yinbog', belbog', ustbosh, ishtonbog', bilakuzuk.*

Ot+Ot=Sifat: *belburma, bodomgul.*

Bulardan tashqari ushbu tadqiqotda murakkab strukturaga ega bo'lgan ba'zi terminlar ham aniqlandi. Ular A+A+Q modeliga ega bo'lib, ham asos ham qo'shimcha qo'shish orqali yasaladi: **dressmaker, handwarmer** (*ikki qavatli cho'ntak nomi*).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Petrosyants E.G. *Linguistic terminology: structure, semantics, derivation: on English material.* Pyatigorsk, 2004

2. Гринев С.В. Введение в терминоведение. — М.: Московский лицей, 1993